

TALABALARING MA'NAVİY-AHLOQİY TARBIYASIDA HADİS  
ILMINING AHAMIYATI (IMOM BUXORİY VA AT-TERMİZİY ASARLARI  
MISOLIDA)

Jurayeva Ismigul Bahodir qizi  
*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annnotatsiya:** *Ushbu maqolada talabalarning ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonida hadislarning o'rni va ahamiyati haqida nazariy fikir va mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit sozlar:** *Hadisi sharif, Imom Buxoriy, At Termiziy, hadisshunos, ma'naviy-ahloqiy, tarbiyaviy, mutafakkir.*

Mamlakatimizda hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan bo'lib, milliy urf-odatlar, an'analar, Imom Buxoriy Beruniy, Forobiy, Muso At Termiziy singari buyuk allomalar, olimlar, hadisshunoslarning mulohazalari bugungi kunda komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishda otabobolarimizning ulkan madaniy- ma'rifiy meroslaridan biri hadisi sharif sanaladi. Hadis o'qib, o'rganib, o'z-o'zini ma'naviy tarbiyalash vositasi bo'lib oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim ma'naviy axloqiy tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. «Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, hadis ilmiga oid ma'naviy axloqiy o'gitlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuchquvvat beradi. Jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning ana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoitlar yaratib, biz farzandlarimizni dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'gitlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilib kelmoqdamiz».

Mafkuraviy ziddiyatlar avj olgan bugungi globallashuv davrida internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan tahdidlar tobora avj olib bormoqda. Achinarlisi, buning natijasida ayrim yoshlar orasida ommaviy madaniyatga ergashish, axloqsizlik, jinoyatchilik yo'liga kirish, kashandalik, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, o'z joniga qasd qilish, milliy va diniy qadriyatlarga hurmatsizlik, ekstremizm va radikalizm kabi ijtimoiy illatlarga berilish holatlari kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtدا

yoshlarni turli ijtimoiy illatlar, xususan, ekstremizm va terrorizm ta'siridan asrab-avaylashning eng muhim omillaridan biri bilim hisoblanadi. Yoshlar qanchalik bilimli bo'lsa, ularning adashib yot yo'llarga kirib qolishlari ham shunchalik kam kuzatiladi. “Jaholatga qarshi ma'rifat” ezgu g'oyasining asosiy mohiyati ham shundan iborat. Biz yashab turgan bugungi davrda har qanday tahlikali fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Johilga johillik bilan qarshilik ko'rsatish yonib turgan olovga yog' sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqog'iga botgan kishi o'zini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgani sari jazavasi qo'ziydi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ilm va ma'rifat bilan kurashish kerak.

Avvalambor, biz faxr va iftixor bilan ta'kidlay olamizki, biz, o'zbek ahli dunyo ahliga ilm-u ma'rifat, iymon, e'tiqod sabog'ini ularshgan buyuk ajdoddarning avlodlarimiz. Buning buyuk asosi esa hech shubhasiz, muqaddas dinimiz-Islom diniga borib taqaladi. Dinimiz bizni eng avvalo ezgulikka, tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni, insoniylikni asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalari Islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebahohissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday allomalarimizdan biri buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning sahih hadislari o'quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo falsafasi tarixida “Sahih” yo'nalishining asoschisi eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo'minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. U 810-yilning 13-mayida Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan yetim qolgan. Dastlabki savodini maktabda chiqargan. Shuningdek, allomaning o'zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi. Imom Ismoil al-Buxoriy iste'dodli, o'tkir zehnli hamda ziyrak olim bo'lgan. Manbalarga ko'ra, Bag'dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko'pincha qorong'u kechalari sham yorug'i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o'sha fikrni qog'ozga tushirar, shu tahlitda ba'zan shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan. Imom Buxoriyning hadislari to'plashga va “Al-Jomi' as-Sahih”ni yozishga kirishgani borasida turli fikrlar mavjud. Shu bois, “Mazkur asarning yozilish sabablaridan biri Imom Buxoriy hazratlarining ustozи, hadis ilmida mo'minlarning amiri Is'hoq ibn Rohavayhning so'zлari deb ko'rsatilgan, Ibrohim ibn Ma'qal an-Nasafiydan rivoyat qilinadi: “Imom

Buxoriy: “Is’hoq ibn Rohavayh bir kuni: “Qaniydi sizlar Rasululloh (s.a.v.)ning hadislaridan sahihlarini to‘plab bir asar ta’lif etsangizlar,” deb aytdi. Mana shu so‘zlar mening qalbimga qattiq o‘rnashib qoldi. Natijada “Al-Jomi’ as-Sahih”ni jamlashga kirishdim”<sup>1</sup> Shu bilan birga kelajak avlodda ma’rifatli, bilimli , zakovatli, aqli va idrokli, baxtli va saodatli, odob-axloqli, pok hamda iffatli, sabr matonatli bo‘lib ulg‘ayish tuyg‘ulari shakllanib boradi.

Imom al-Buxoriy hadislarida axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deydiladi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning hadislarida insonning ma’naviy kamolga yetish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-onva kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘s, tinchtotuv bo‘lish, ilmning qadr qimmati ilm o‘rganishga bo‘lgan muhabbat va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, ma’naviy kamolga yetish uchun inson o‘zini qanday bo‘lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham axloqiy-ma’naviy tarbiyani rivojlantirishda o‘z ifodasini topgan bo‘lib bularning barchasi Qur’oni Karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sifatida hozirgi kunda yoshlарimizda ma’naviy tarbiya uchun yetakchi omillardan biri sanaladi.

Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (“Odob-axloq haqidagi yagona kitob”) asari hayotimizda juda zarur bo‘ladigan odob-axloqqa doir hadislar to‘plamidir. “AlAdab al-mufrad” kitobining nomidan bilinib turibdiki, bu kitobning o‘zi odob-axloq, ta’limtarbiya haqidadir. Asarda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Asarda keltirilgan hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-onva kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘s, tinchtotuv bo‘lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o‘zini qanday bo‘lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi. Hadislarda insonning ma’naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani,o‘z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib yetishishida muhim omil chiroyli xulqli bo‘lish deb ko‘rsatiladi.

Alloma asarlarida axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir – birlariga har doim yordam berish, ahil – totuv yashash kerakligi, halol mehnat qilish, yaxshilik, ezgulik g'oyalari yotadi. Imom Buxoriy qalbi pok, iymonli, atrofdagilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb hisoblaydi

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi' assahiyh» («Ishonchli to'plam») eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, «al-Jomi' al-kabiyr», («Katta to'plam»), «Sahiyh at-Termiziyy», «Sunan at-Termiziyy» («Termiziyy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar alAsqaloniyning yozishicha, at-Termiziyy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmis yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi' assahiyh» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ko'rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabi (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbiliyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziyy» nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yidda Qohirada nashr qilingan.

Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim alMuborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziyy» deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib JamoliddinAbdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziyy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug'taziya ala Jomi' at-Termiziyy» (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bugungi kunda xalqimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga, ezgu niyatlarga erishish, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlar rejalarining samarasi, avvalambor yuqori malakali, yuksak tafakkurga ega bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash, tarbiyalash taraqqiyotimizning asosiy sharti hisoblanadi. Shunday ekan biz yoshlar ongida ham ona Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimiy boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada

shakllantirishimiz, kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rinni tutadi. Toki yoshlar milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqurroq anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shundagina johil aqidaparastlarning "da'vat"i ham ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizlar uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Yoshlardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yana milliy o'zligimizga salbiy ta'sir ko'rsatgan milliy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga to'sqinlik qilgan, o'zligimizdan ayirmoqchi bo'lganlarni, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiqso'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindoshurug'chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o'zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to'g'risida chuqur o'yashimiz kerak.

Jumladan yoshlar tarbiyasida buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning hadislari va asarlari o'quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Muhammad sallollohu alayhi vassalam o'z hadislarida: «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilm-u hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir» deydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buyuk siymolar, allomalar. 1 - kitob, - Toshkent, Fan, 1995
2. Bobomurod o'g'li, O. B., & Abdulla o'g'li, J. B. (2023). IMOM AL BUXORIYNING HADISLARINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN ORNI.
3. Qobulov N. “Sahihu-l-Buxoriy”ning yozilishi tarixi va uslubi // Imom Buxoriy saboqlari, 2009.
4. Алимов У. Қуръони Каримдан кейинги иккинчи муқаддас китоб. Имом ал-Бухорий сабоқлари. Ташкент. 2009. Б. 7.
5. Узбекистон халқаро ислом академияси ўзбекистон мусулмонлари идораси имом термизий халқаро илмий тадқиқот маркази убайдулла уватов мовароуннахр ва хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-бухорий, муслим, ат-термизий) ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси тошкент- 2020